



DEMOGRAPHIC POLICY AND ETHICS: HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS IN THE ERA OF GLOBALISATION

Alisher Abdumannonovich Khalilov

Senior Lecturer, Department of Philosophy

Tashkent State University of Economics

Email: alisher_xalilov@icloud.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Demographic policy, ethical standards, globalization, human rights, freedoms, reproductive rights, migration policy, social justice, state policy, population policy, cultural diversity, legal norms, gender equality, international organizations, UN conventions.

Received: 13.06.25

Accepted: 15.06.25

Published: 17.06.25

Abstract: This article focuses on the ethical foundations of demographic policy and its dynamic nature in the context of globalization. The impact of state policies on human rights and freedoms under global conditions is analyzed, and the compatibility of demographic governance with ethical standards is examined. In particular, ethical and legal issues are addressed within the scope of birth control policies, migration policies, and factors affecting family institutions. Additionally, the compatibility of demographic policies with human rights in different regions is studied through comparative analysis. The article evaluates contemporary directions of demographic policy based on international legal norms and the perspectives of the UN and other international organizations. The findings of the research substantiate the relevance of ethical approaches and the principle of respecting human rights in the implementation of demographic policies.

DEMOGRAFIK SIYOSAT VA AXLOQ: GLOBALLASHUV DAVRIDA INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKHLARI

Alisher Abdumannonovich Xalilov

“Falsafa” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Email: alisher_xalilov@icloud.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Demografik siyosat, axloqiy mezonlar, globallashuv, inson huquqlari, erkinliklar, reproduktiv huquqlar, migratsiya siyosati, ijtimoiyadolat, davlat siyosati, aholi siyosati, madaniy xilma-xillik, huquqiy me'yorlar, gender tengligi, xalqaro tashkilotlar, BMT konvensiyalari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada demografik siyosatning axloqiy assoslari va uning globallashuv jarayonidagi o'zgaruvchan tabiatiga e'tibor qaratiladi. Globallashuv sharoitida inson huquqlari va erkinliklariga nisbatan davlat siyosatining ta'siri tahlil qilinadi hamda demografik boshqaruvning axloqiy mezonlarga muvofiqligi masalasi ko'rib chiqiladi. Xususan, tug'ilishni cheklash siyosatlari, migratsiya siyosati va oilaviy institutlarga ta'sir etuvchi omillar doirasida axloqiy va huquqiy muammolar yoritiladi. Shuningdek, turli mintaqalarda demografik siyosatning inson huquqlari bilan muvofiqligi solishtirma tahlil asosida o'rganiladi. Maqolada xalqaro huquq me'yorlar, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning qarashlari asosida demografik siyosatning zamonaviy yo'naliishlari baholanadi. Tadqiqot xulosalari, demografik siyosatni yuritishda axloqiy yondashuvlar va inson huquqlarini hurmat qilish tamoyillarining dolzarbligini asoslab beradi.

ДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА И ЭТИКА: ПРАВА И СВОБОДЫ ЧЕЛОВЕКА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Алишер Абдуманонович Халилов

Старший преподаватель кафедры философии

Ташкентский государственный экономический университет

E-mail: alisher_xalilov@icloud.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Демографическая политика, этические критерии, глобализация, права человека, свободы, репродуктивные права, миграционная политика, социальная справедливость, государственная политика, демографическая политика, культурное разнообразие, правовые нормы, гендерное равенство, международные организации, конвенции ООН.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этические основы демографической политики и ее меняющийся характер в процессе глобализации. Анализируется влияние государственной политики на права и свободы человека в условиях глобализации и рассматривается вопрос соответствия демографического управления этическим критериям. В частности, выделяются этические и правовые вопросы в рамках политики контроля рождаемости, миграционной политики и факторы, влияющие на институты семьи. Также на основе сравнительного анализа изучается соответствие демографической политики правам человека в разных регионах. В статье оцениваются современные

тенденции в демографической политике на основе международно-правовых норм, взглядов ООН и других международных организаций. Выводы исследования обосновывают актуальность этических подходов и принципов соблюдения прав человека при проведении демографической политики.

Kirish. XXI asr globallashuv jarayonining jadallahuvi bilan ajralib turadi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarga, balki ijtimoiy hayotning eng muhim jihatlaridan biri bo‘lgan demografik siyosatga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Demografik siyosat — bu davlat tomonidan aholining soni, tarkibi, joylashuvi va harakatiga ta’sir etish maqsadida ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar tizimidir. Ushbu siyosatning yuritilishida axloqiy tamoyillar, inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tug‘ilish, oilaviy hayot, migratsiya va reproduktiv huquqlar kabi nozik masalalarda demografik boshqaruv bilan axloqiy yondashuvlar o‘rtasida muvozanat saqlash dolzarb masalaga aylangan. Globallashuv insonlar o‘rtasidagi aloqalarni jadallashtirar ekan, turli madaniyatlar, qadriyatlar va axloqiy qarashlarning to‘qnashuvi yoki uyg‘unlashuvi demografik siyosatning mazmun-mohiyatini qayta ko‘rib chiqishga undamoqda. Ayrim davlatlarda demografik o‘sishni rag‘batlantirishga qaratilgan siyosatlar yuritilayotgan bo‘lsa, boshqalarda ortiqcha tug‘ilish yoki migratsiyani cheklashga qaratilgan qat’iy choralar qo‘llanilmoqda. Bunday siyosatlar ayrim hollarda inson huquqlari, ayniqsa shaxsiy hayot daxlsizligi, farzand ko‘rish erkinligi va erkin harakatlanish huquqlarini cheklab qo‘yishi mumkin.

Mazkur maqolada demografik siyosatning axloqiy asoslari, xalqaro huquqiy me’yorlar bilan uyg‘unligi hamda globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan yangi chaqiriqlarga qanday javob qaytarilishi lozimligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, turli davlatlar tajribasi asosida demografik siyosat va inson huquqlari o‘rtasidagi bog‘liqlik solishtirma tahlil asosida o‘rganiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — demografik boshqaruvda axloqiy yondashuvlarning dolzarbligini asoslash, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan yondashgan holda samarali siyosat yuritishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishdan iborat.

Demografik siyosatning istalgan strategiyasi doirasida davlat o‘zining ijtimoiy jarayonlarini boshqarish huquqini amalga oshiradi. Shu bilan bir vaqtda, davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosatning maqsad va vazifalari oqimida borayotgan aholi qismining xarajatlarini qoplash ham davlat zimmasida bo‘ladi. Bunday siyosat turli ijtimoiy-demografik guruhlar, hududiy va etnik jamoalaming hayotiy qiziqishlari va qadriyatlariga mos ravishda maksimal differentialsallashgan bo‘lishi lozim. Shundagina demografik dasturning u yoki bu jihatiga

qiziquvchilaming soni kamayib, dasturlarni amalga oshirish xarajatlarining samaradorligi oshishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan iqtisodiy islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Albatta, bunda mamlakat demografik rivojlanishining o‘rnini katta bo‘lib, ijtimoiy manfaatlarga yo‘naltirilgan iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda aholi, uning o‘sishi, joylashishi, demografik tarkibi kabi jihatlarini iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish davri nuqtai nazaridan o‘rganish katta ahamiyatga ega. Chunki, aholi ham asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ham iste’molchi sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida quyidagi asosiy vazifalar amalga oshirilishini ta’minlash nazarda tutiladi: barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

Qayd qilingan dalillar aholining muhim sotsial-demografik ko‘rsatkichlarining holatini va rivojlanishini statistik tahlil qilish masalalarini o‘rganishni taqazo etganligi mavzuning dolzarbligini bildiradi.

Asosiy qism

Demografik siyosat deganda, hozirgi davr hamda uzoq muddatli istiqbol uchun aholining takror barpo bo‘lishi va dina-mikasi sohasida muayyan bir sifat va miqdorga erishishni nazarda tutuvchi birlashgan vositalar va fikrlar birligining davlat miqyosida qabul qilingan tizimi tushuniladi. Demografik siyosatni o‘tkazish quyidagi shart-sharoitlarga rioya qilishni talab etadi:

- siyosatning maqsadini tavsiflovchi vazifa va vaqtini belgilovchi konsepsiyaning mavjudligi;
- qabul qilingan konsepsiya doirasida siyosatning barcha tadbirlarini moliyalashtirishga sarflanishi zarur bo‘lgan resurslar;
- o‘tkazilayotgan siyosatning asosiy strategik fikrlarini qoilovchi o‘zaro mutanosib fikrlar.

Aytish joizki, demografik siyosatni o‘tkazish uchun iqtisodiy, ma’muriy-huquqiy va ijtimoiy-psixologik uslublardan foyda-laniladi.

Iqtisodiy uslub asosan tug'ilish darajasi aholi ko'payishini ta'minlay olmagan hollarda qo'llaniladi. Bu uslubda davlat tomonidan homilador ayollarga farzand ko'rgandan keyin va farzandi 2-3 yoshga to'lgunga qadar maxsus nafaqalar ajratiladi hamda turli imtiyozlar beriladi.

Ma'muriy-huquqiy uslubda aholining takror barpo bo'lishiga qonun hujjatlari orqali ta'sir ko'rsatiladi. Masalan, bu uslub abortlarni qonun yo'li bilan ta'qiqlash, nikohga kirish yoshini ko'tarish, aholining migratsion harakatini cheklash yoki rivojlantirish, er-xotin ajrashganda ona va bola huquqlarini himoya qilish, homilador ayolni ishga qabul qilishda yoki bo'shatishda ularning huquqlarini himoyasi va boshqa tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Demografik siyosat o'tkazishning ijtimoiy-psixologik uslubi aholini «demografik tarbiyalash» deb ham ataladi. Aholini demografik tarbiyalash orqali yosh avlodning oilaga, oilada kutilayotgan farzandlar soniga bo'Mgan munosabatini davlat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, aholi salomatligiga mos ravishda shakllantiriladi. Bunda oila asosiy tarbiya o'chogi hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-onalaming «demografik savodxonligi»ga katta e'tibor beriladi. Demografik tarbiyaning yana bir muhim o'chog'i omma-viy axborot vositalari orqali aholining demografik mayliga ta'sir o'tkazish hisoblanadi .

Demografik siyosat har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, resurslarni boshqarish, aholining hayot darajasini saqlab qolish kabi muhim sohalarida asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, bu siyosat bevosita inson hayoti, uning oilaviy qarorlari, farzand ko'rish erkinligi, migratsiya va yashash hududini tanlash kabi shaxsiy erkinliklarga ham ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu jihatlar demografik siyosatni faqat statistik yoki iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida emas, balki axloqiy va huquqiy mezonlar nuqtai nazaridan ham baholash zaruratinu tug'diradi. Global mashuv sharoitida demografik siyosat yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bir tomonidan, dunyo miqyosida aholi o'sishi, urbanizatsiya, migratsiya jarayonlari tezlashmoqda, ikkinchi tomonidan, ko'plab davlatlar o'z milliy siyosatini xalqaro tashkilotlar, konvensiyalar va global standartlarga muvofiqlashtirishga majbur bo'lmoqda. Bu jarayonda davlat siyosatining axloqiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, tarixda va hatto bugungi kunda ham ayrim demografik siyosatlar majburiylik, nazorat va cheklowlarga asoslangan holda olib borilayotgani kuzatiladi. Bunday yondashuvlar inson huquqlari va erkinliklarini buzish, ijtimoiy tengsizlik, norozilik va hatto zo'ravonlik holatlariga olib kelgan.

Ayniqsa, tug'ilishni cheklashga qaratilgan siyosatlar ko'plab davlatlarda axloqiy muammolarni keltirib chiqargan. Masalan, ayrim mamlakatlarda oilalarni faqat bitta farzandli bo'lishga majburlash siyosati nafaqat demografik ko'rsatkichlarga, balki millionlab insonlarning oilaviy hayotiga, jinsiy tenglikka, inson qadriyatlariga putur yetkazgan. Qiz bolalarning

qadrsizlanishi, majburiy abortlar, jinsiy nomutanosiblik, qarigan aholiga yetarli avlod yo‘qligi kabi oqibatlar bunga yaqqol misoldir. Bu tajribalar demografik siyosatni yuritishda axloqiy mezonlarga amal qilish qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, migratsiya siyosati ham globallashuv davrida dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Juhon bo‘yicha millionlab insonlar turli sabablarga ko‘ra – ish izlab, urushlardan qochib yoki ekologik xavf ostida bo‘lgan hududlardan ketishga majbur bo‘lmoqda. Bu holatda ularni qabul qilayotgan davlatlarning demografik siyosati, ayniqsa migratsiyani boshqarish bo‘yicha siyosati, inson huquqlari bilan muvofiq bo‘lishi talab etiladi. Lekin ba’zi davlatlarda muhojirlarga nisbatan kamsitish, cheklov, diskriminatsiya va huquqiy muammolar kuzatilmoxda. Bu esa inson erkinliklarini poymol qiluvchi omillardan biridir.

Bugungi kunda dunyoda aholi sonining yuqori sur’atda o’sib borishi yoki kamayishi muammosidan tashvishga tushib, tug‘ilish darajasini tartibga solishga harakat qilmayotgan deyarli birorta davlat qolmadi. Tug‘ilishni tartibga solishga urinayotgan barcha mamlakatlar diametal qarama-qarshi maqsadlari va qiziqishlari bilan farqlanuvchi ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga kiruvchi mamlakatlarda demografik o‘tish hali tugallanmagan va tug‘ilish darjasasi nisbatan yuqori bo‘lib, ularni asosan aholining o‘sish sur’atlarini kamaytirish va shu yo‘l bilan mamlakat iqtiso—diyoti va resurslariga bo‘lgan demografik bo sim i pasaytirish masalasi tashvishga soladi. Ushbu masalada eng faol pozitsiyani aholisi soni jihatidan eng ko‘p hisoblangan Xitoy va Hindiston mamlakatlari egallaydi. Bu mamlakatlar turli xil, jumladan, regressiv chora-tadbirlarni amalga oshirish yo‘li bilan aholini keskin o‘sishini to‘xtatishga urinmoqdalar. Ikkinchchi guruhga esa sanoati yuksak darajada rivojlangan, biroq tug‘ilish hatto avlodlar almashinuvini ham ta’minlab beraolmaydigan, ko‘pincha depopulyatsiyaga olib keladigan darajada past bo‘lgan mamlakatlar kiradi. Bu mamlakatlarning barchasi ham depopulyatsiya muammosining kelib chiqish vaqtini, uning davomiyligi, tarixiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sabablariga ko‘ra bir-biridan tubdan farq qiladi. Buning hisobiga bu mamlakatlarda qator muhim masalalar bo‘yicha yaqqol differentsiatsiya namoyon bo‘ladi. Tug‘ilish darjasasi va tipi o‘xshash bo‘lgan mamlakatlarda demografik siyosatni o’tkazish yoki aksincha, uni rad etish haqida qaror qabul qilinishining sabablari orasidan quyidagilarni ajratish mumkin: tug‘ilishning haqiqiy darjasasi, uning tendentsiyalari va aholi soni dinamikasini baholash, ulkan kataklizmalar (birinchi navbatda, urushlar) natijasida aholi orasidagi yo‘qotishlar, strategik (iqtisodiy, geosiyosiy, siyosiy-ma’naviy) rejadagi muammolarni yechish zaruriyati. Bu sabablarning birlashishi ba’zi mamlakatlarda ziddiyatlidir. Shu ma’noda tug‘ilish sohasida demografik siyosatni olib borish zaruriyatini ochiqdan ochiq rad qiluvchi ikkita mamlakat — AQSH va Buyuk Britaniya alohida qiziqish uyg’otadi. Bu

mamlakatlardagi tug'ilish darajasi, hatto aholining takror barpo etilishini ham ta'minlay olmasligiga qaramay, har ikkala mamlakat ham o'zlaridagi tug'ilish darajasini ichki va tashqi qarashlar hamda ehtiyojlarni qonuniylashtirish uchun yetarli, deb hisoblashadi. Ikkala mamlakatda ham «farzandlaming tug'ilishi, oila va inson—ning shaxsiy ishi, aholining o'sishi esa davlatga iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy foyda keltirmaydi», degan fikr ilgari suriladi. AQSH va Buyuk Britaniyadan tashqari Italiya, Irlandiya va bir necha boshqa mamlakatlar tug'ilish darajasiga ta'sir etuvchi choralarni ishlab chiqish borasida o'rtacha pozitsiyani egallamoqda. Bu mamlakatlar farzandlar tug'ilishini tartibga solishni ma'naviy va etnik me'yorlarga mos kelmaydi, deb hisoblaydi hamda bu masalada katta miqyosda hech qanday siyosat olib borilmaydi. Bu mamlakatlarning hukumati hamda jamoatchilikning nikoh-oila munosabatlari, shuningdek, abort va kontratsepsiya masalalarida konservativ fikr bildiriladi.

Demografik siyosatni axloqiy yondashuvdan ajratib bo'lmaydi. Har qanday demografik qaror yoki siyosat avvalo inson hayoti va erkinliklariga ta'sir ko'rsatishini unutmaslik kerak. Bu siyosatning markazida inson turishi lozim. Oilaning nechta farzand ko'rshini belgilash, ularning sog'lom tarbiyasini ta'minlash, yoshlar va ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratish, migratsiyaga duch kelgan fuqarolarga insoniy munosabatda bo'lish — bularning barchasi demografik siyosatning axloqiy asoslariga taalluqlidir. Davlat bu borada faqat nazorat qiluvchi yoki chekllovchi emas, balki inson erkinliklarini ta'minlovchi, himoya qiluvchi sub'ekt sifatida harakat qilishi zarur. Shuningdek, axloqiy yondashuv reproduktiv huquqlarni to'laqonli tan olish va himoya qilishi talab qiladi. Ayolning farzand ko'rish yoki ko'rmaslik haqidagi qaroriga aralashish, unga bosim o'tkazish yoki uni ma'naviy jazolash — bu inson huquqlarining ochiq buzilishi hisoblanadi. Shunday ekan, demografik siyosat ayollar va oilalarning qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi, ularni ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy jihatdan rag'batlantiruvchi shaklda olib borilishi lozim. Reproduktiv xizmatlar, sog'liqni saqlash tizimi, ta'lim va ish bilan ta'minlash tizimi bilan bog'liq siyosatlar demografik yondashuvlarning ajralmas qismi bo'lishi kerak.

Axloqiy yondashuv shuningdek, jamiyatda madaniy xilma-xillikni hurmat qilishni ham talab etadi. Turli millat, din va irq vakillari uchun yagona, inklyuziv va odil siyosat yuritish, ularning ehtiyojlarini hisobga olish demografik barqarorlikka xizmat qiladi. Ko'p millatli, ko'p madaniyatli jamiyatlarda aynan axloqiy qadriyatlar — bag'rikenglik, hamjihatlik va o'zaro hurmat siyosatning samaradorligini oshiradi. Aks holda, siyosat turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Shu o'rinda xalqaro tashkilotlarning o'rni ham alohida e'tiborga loyiq. BMT, YUNFPA, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kabi tuzilmalar tomonidan e'lon qilingan normativ hujjatlar, konvensiyalar va strategiyalar demografik siyosatda axloqiy tamoyillarni joriy etishda yo'l-yo'riq sifatida xizmat qilmoqda. Ularning tavsiyalarida

demografik siyosat faqat raqamlar yoki rejalar bilan emas, balki inson qadri, huquqlari, sog‘lig‘i, farovonligi bilan bog‘liq ekani ta’kidlab kelinadi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida demografik siyosatni yuritishda axloqiy va huquqiy yondashuvlar ustuvor bo‘lishi kerak. Bu siyosat inson huquqlarini buzmasligi, balki ularni himoya qilishi zarur. Davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatlar xalqaro huquqiy me’yorlarga mos, adolatli, ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan bo‘lishi inson salohiyatining to‘liq ro‘yobga chiqishiga xizmat qiladi. Faqat shundagina demografik siyosat nafaqat samarali boshqaruv vositasi, balki insoniyat taraqqiyotining ijtimoiy-asosiy tayanchi sifatida qaralishi mumkin bo‘ladi.

Xulosa va tavsiyalar

Globallashuv sharoitida demografik siyosat nafaqat davlatning ichki boshqaruv vositasi, balki inson huquqlari va axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan muhim siyosiy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aholi soni, tarkibi va harakatini boshqarishga qaratilgan har qanday siyosat insonning asosiy huquqlari — oilaviy hayotni rejalashtirish, farzand ko‘rish, yashash joyini tanlash, harakatlanish erkinligi va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga mos kelishi zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, demografik siyosatni amalga oshirishda axloqiy tamoyillarga amal qilinmasligi inson huquqlarining buzilishiga, gender tengsizligiga, ijtimoiy adolatsizlik va norozilik holatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois, zamonaviy demografik siyosat ixtiyoriylik, inson qadr-qimmati, tenglik, adolat va erkinlik asosida shakllanishi lozim.

Shuningdek, xalqaro huquqiy me’yorlar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlarga amal qilish davlatlar uchun nafaqat majburiyat, balki barqaror demografik rivojlanishning asosiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Axloqiy yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan demografik siyosat esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlab, inson salohiyatining to‘liq ro‘yobga chiqishiga xizmat qiladi.

Tavsiyalar:

1. Demografik siyosatni inson huquqlari asosida shakllantirish

Davlatlar aholining soni, tarkibi va harakatini boshqarishda insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini birinchi o‘ringa qo‘yishi lozim. Har qanday cheklov yoki tartibga solish ixtiyoriylik, tenglik va inson qadr-qimmati tamoyillariga muvofiq bo‘lishi kerak.

2. Axloqiy yondashuvni joriy etish

Demografik siyosat axloqiy me’yorlarga asoslanib, inson hayotining muhim jihatlarini hurmat qiluvchi tarzda ishlab chiqilishi zarur. Siyosatni amalga oshirishda majburiylik va zo‘ravonlik usullaridan voz kechib, ma’rifiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish tavsiya etiladi.

3. Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash

Demografik siyosatni xalqaro huquq va xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga muvofiq rivojlantirish uchun davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish lozim. BMT va boshqa xalqaro organlarning standartlari va konvensiyalariga amal qilishni ta'minlash muhimdir.

4. Jamiyatda ijtimoiy ongni oshirish

Aholining demografik siyosat, inson huquqlari va axloqiy tamoyillar haqida xabardorligini oshirish, madaniyat va ta'lim orqali bu sohadagi bilimlarni keng targ'ib qilish davlat siyosatining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
2. Axmedov, B. (2020). Demografik siyosat va inson huquqlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
3. Mirzaev, S. (2018). Globallashuv va demografik jarayonlar: axloqiy muammolar. Toshkent: Fan va Texnologiya.
4. United Nations. (2019). World Population Policies 2019. New York: United Nations Publications.
5. Sen, A. (1999). Development as Freedom. New York: Alfred A. Knopf.
6. Иванов, А. В. (2017). Демографическая политика и права человека в условиях глобализации. Москва: Наука.
7. Петрова, Е. С. (2019). Этика демографической политики и международные стандарты. Санкт-Петербург: Издательство СПбГУ.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11-сентябрдаги ПФ-158-сон “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисидаги Фармони. www.lex.uz.